

BIZ RADIKALIZMGA QARSHIMIZ

Qodirova Munibaxon

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik fakulteti, Islom tarixi va
manbashunosligi yo'nalishi 2- bosqich talabasi
Email: mustafoqodirov076@gmail.com
Tell: +998935062255

Anotatsiya: Ushbu maqolada siz radikalizm nima ekanligini va hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan radikalizm vakillar va ular ilgari surayotgan g'oya va maqsadlar haqida ma'lumot olishingiz umkin.

Kalit so'z: Radikalizm, dunyoqarash, islom, ilm, Isro surasi va Anas ibn Molik.

Mafkuraviy ziddiyatlar avj olgan bugungi globallashuv davrida internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan tahdidlar tobora ko'proq namoyon bo'lib bormoqda. Afsuslanarlisi, buning natijasida ayrim yoshlar orasida ommaviy madaniyatga ergashish, axloqsizlik, jinoyatchilik yo'liga kirish, kashandalik, giyohvandlik, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish, o'z joniga qasd qilish, milliy va diniy qadriyatlarga hurmatsizlik, ekstremizm va radikalizm kabi ijtimoiy illatlarga berilish holatlari kuzatilmoqda. Xalqaro yoki mintaqaviy miqyosda yuzaga kelayotgan nizoli vaziyat va mojarolarning mavjudligi holatida mana shu ekstremizm, radikalizm va terrorizm singari buzg'unchi mafkuralarga qarshi kurashish masalasi kun tartibidagi dolzarb mavzular sirasiga kirmoqda. Bunga ekstremistik va radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolayotgan insonlarning aksarini yoshlar tashkil qilayotgani va ularning son jihatdan ortib borayotganini sabab qilib ko'rsatish mumkin. Bugungi kundagi shu va shu kabi boshqa illatlar negizini johillik(ilmsizlik) tashkil qilmayapdimi?

Inson ajib mavjudot. Sababi uning... **dunyoqarashi** mavjud. Ya'ni u dunyoni yaxlit tasavvur eta oladi. Hamda uning – dunyoning ma'lum ma'naviy qonuniyatlar ustida qurilganini anglay oladi, amallar va narsalarni ma'naviy tarozisiga solib, “oq va qora”, “yaxshi va yomon”ga ajrata biladi. Garchi ma'naviy olamni ko'z bilan ko'rib bo'lmasa-da, inson uning nizomlarini his qila oladi. Shu yerda savol paydo bo'ladi: “Demak Yer yuzida yaxshi va yomonni ajrata oladigan mavjudot hukmron ekan, nima uchun buncha mudhish, hech bir taroziga sig'maydigan ishlar sodir bo'lmoqda?”. Javobi shuki, avvalida yaxshi bo'lgan ma'nolar keyinchalik salbiylashib ketishi mumkin. Yer yuzida sodir etilgan deyarli barcha yomonliklar yaxshilik shiori ostida qilingan. Hatto Ikkinchi jahon urushiga olib kelgan, o'ta salbiy bo'lgan natsional-sotsializm shiorlari o'sha paytda va o'sha joyda odamlarning ongida yaxshilik bo'lib gavalangan. Boshida nemislarning madaniy birligini quvvatlash uchun shakllangan nemis millatchiligi birozdan so'ng radikallashib, atrof-dunyoga nisbatan nafratga to'lgan ekstremistik, irqchilik, antisemitizm, antidemokratizm, “irqiy gigiyena” – millatni “irqiy begonalar”dan va “noraso” elementlardan tozalash g'oyasi va boshqa salbiy illatlarni o'z ichiga olgan totalitarizm g'oyasiga – natsizmga aylangan.

Bunday evrilish aynan **radikallashish** evaziga sodir bo'ladi.

Radikallashuv o'zi nima?

Radikal deganda birinchi navbatda ko'z oldimizga qat'iy va keskin choralar, harakatlar, dasturlar tarafdorlari bo'lgan shaxslar keladi. Radikalizm jarayonida esa muayyan shaxs yoki guruhning mavjud barqaror bo'lgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy, ma'naviy holatlarni tubdan va murosasiz o'zgartirishga

bo'lgan intilishini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi radikalizm ekstremizmning nazariy manbai hisoblanadi, chunki uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri mavjud barcha muammolarni zo'rlik yo'li bilan hal qilishiga intilishidir.

Bu jarayonlarni diniy yo'nalishda ham kuzatishimiz mumkin. Bunda shaxs o'z diniy e'tiqodini haq deb bilib, boshqa e'tiqodiy qarashlar va fikrlarga murosasiz va keskinlik asosida yondashadi hamda ularni zo'rlik yo'llari bilan o'zgartirish tarafdori bo'ladi. Bu holat ko'pincha jamiyatda mavjud turli diniy konfessiyalarga keskinlik bilan yondashish, bir din doirasidagi o'zga mazhab yoki qarashlarni murosasiz inkor etish hamda ularni raqib sifatida qabul qilishda namoyon bo'ladi. Aynan mana shu ko'rinishi bugungi kunda yoshlarimiz orasida ko'p tarqalgan. Buning ildizi yana va yana ilmsizlikga borib taqaladi. Ma'lumki farzand oilada ota-onasidan olishi kerak bo'lgan ma'lum bilimlar bor. Mana shu bilimlarni to'laqonli ravishda olmasligi, unda ma'lum bir bo'shliqni hosil qiladi. Natijada farzand uni to'ldirish uchun tashqari, yon-atrofdan ozuqa izlay boshlaydi.

Biz yuqorida radikalizmga sabab bo'luvchi omillardan oilada kerakli bo'lgan dastlabki bilimlarni olmaslik, ilmsizlikni keltirdik. Quyida ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanmaslikni ham keltirib o'tamiz. Endi bugungi kundagi tadqiqotchilarni radikalizmning shakllanishiga sabab bo'luvchi qanday omillarni keltirganlarini ko'rib chiqaylik:

- bolalikdagi tarbiya tipi (avtoritar, ezuvchi, shubhali, nazorat qiluvchi, "oila kumiri" tipi bo'yicha yoki hech qanday nazoratsiz hamma narsaga ruxsat etilgan va boshq.);
- shaxsning o'ziga xos xususiyatlari (o'ziga past baho berish, o'zini tasdiqlashdagi ustuvor ehtiyojlar, nuqtai nazari, g'oyalari, psixologik himoya nevrotik mexanizmlari);
- keskin vaziyatlarda xulq-atvorning vayron qiluvchi, yemiruvchi va o'ziga qaratilgan strategiyasi;
- shaxsning buzilishi: tobe, xavotirli, o'ta mutakabbirlik.[2]

Psixologlarning ta'kidlashicha, yoshlardagi tajribasizlik va hissiyotga tayangan holda ish yuritishi, tashqi ta'sir natijasida ruhiy holatining o'zgaruvchanligi; ruhiy tushkunlikka tez tushishi va ruhiy zarbalarga chidamsizligi; yaqinlari e'tiboridan butunlay chetda qolishi; o'ta qiziquvchanlik hamda axborotlarni to'laqonli tahlil qilmaslik, ishonuvchanlik kabi qator omillar radikallashuv jarayoniga xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, yoshlarning radikalizm ta'siriga tushib qolishi oiladagi moddiy qiyinchilik va yetishmovchilik, ishsizlik, kam ta'minlanganlik, alamzadalik, siyosatdan norozilik kabi qator ijtimoiy holatlar bilan ham bog'lanadi.

Bugungi kunda internet ayrim "shaxslar" uchun g'oyaviy qurolga aylanayotgani masalaning eng muammoli jihatidir. O'tmishda biror davlatni bosib olish uchun qurol, tank va shu kabi vositalardan foydalanilgan bo'lsa, hozir bunday qurollarning ahamiyati pasayib boryapti. Bularning o'rnini ommaviy axborat vositalari, ayniqsa, internet egallayapti. Shundan ko'rinadika, hozir biror xalqni yoki mamlakatni tobe qilish uchun, o'sha mamlakat yoshlarining ongini zabt etish kifoya.

Bugun shaxsni manqurtga aylantirish uchun Chingiz Aytmatov yozganidek, tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojiaadir.

Afsuski, ko'p yoshlar islom dini niqobi ostida olib borilayotgan buzg'unchi harakatlarning qurboni bo'lib, din dushmanlari quroliga aylanib qolmoqda. Ular nozik chegara chizig'ini anglamay, shunday targ'ibotlarga uchib, o'z dini, dindoshlari, xalqi va o'zi tug'ilib o'sgan Vataniga qarshi isyon qilishgacha borib yetmoqda. Aslida, adashgan kimsalarning din va shariat borasida umuman ilmlari yo'q, faqatgina to'daboshidan yodlab olganlarini takrorlashdan nariga o'tolmaydi. Bu qayg'u bilan qayd etish joizki, bugungi yoshlarimizning to'qson foizi diniy masalalarda ulamolar tomonidan yozilgan adabiyotga qolib, internetga murojaat qilmoqda.

Inson qayerdan, qanday ma'lumotlarni olmasin, albatta, tekshirib ko'rishi va ularga ko'r-ko'rona

ergashmasligi kerak. Qur'oni karimning "Isro" surasida shunday marhamat qilinadi: "(Ey inson!) **O'zing (aniq) bilmagan narsaga ergashma! Chunki quloq, ko'z, dilning har biri to'g'risida (har bir inson) mas'ul bo'lur (javob berur)**" (36 oyat) – degan xitobiga qat'iy amal qilish lozim.

Shuning uchun ham yoshlarda xabar va ma'lumotlarni tahlil eta olish malakasini hosil qilish zarur, Zero, har qanday xabar ham to'g'ri va xolis bo'lavermaydi. Har bir ma'lumotni tekshirish haqida Alloh taolo shunday deydi: "**Ey mo'minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biror qavmga aziyat yetkazib qo'yib, (keyin) qilgan ishlarinigza pushaymon bo'lmasligingiz uchun (u habarni) aniqlab (tekshirib) ko'ringiz!**" ("Hujurot" surasi 6-oyat).

Islom – ilm-ma'rifat dinidir. Qur'on karimning ilk oyatlari ham bunga yaqqol dalil bo'ladi. Jabroil alayhissalom Payg'ambarga ilk vahiy olib kelgandayoq islom ilm dini ekani ayon bo'ldi. Chunki u olib kelgan ilk kalom "Alaq" surasining besh oyati edi: "(Ey, Muhammad, butun borliqni) **yaratgan Zot bo'lmish Rabbingiz nomi bilan o'qing! U insonni laxta qondan yaratdi. O'qing! Rabbingiz esa karamli Zotdir. U insonga qalam bilan (yozishni) o'rgatgan Zotdir. U insonga bilmagan narsalarini o'rgatdi**".

Agar yaxshi mulohaza qilsak, ilmga e'tibor Qur'on nozil bo'lishidan ham avval, Odam yaratilishidan burun boshlangan. Qur'on oyatlari farishtalar Odamga sajda qilish voqeasini hikoya qiladi. Qissada Alloh Odamga ilm bergani, shu ilm bilan farishtalardan afzal bo'lgani aytiladi. E'tiborli jihati – Odam alayhissalom farishtalardan tasbeh, zikr, namoz bilan emas, balki ilm bilan afzal bo'ldi.

Qur'onda "Ilm" o'zagi va undan yasalgan so'zlari 811 marta kelgan, bu Qur'on suralari sonidan salkam yetti marotaba ko'p emasmi?!

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Ilm talab qilish har bir musulmon zimmasiga farzdir", dedilar. Imom Ahmad va Ibn Moja rivoyat qilishgan.

Islom dinida ilm dunyoviy yoki diniyga ajratilmaydi. Balki islom nazdida foydali va foydasiz ilmlar mavjuddir. Bashariyatning ikki dunyosiga naf keltiruvchi har qanday ilm manfaatli deya baholanadi va o'rganishga targ'ib qilinadi. Bunga yaqqol dalil sifatida tarix sahifalarida o'chmas iz qoldirgan Musulmon renessansi – Sharq tamadduni davrini keltirish mumkin. Bunga sabab aynan islom dinining dunyo bo'ylab tarqalishi bo'ldi. Nega aynan Sharqda, islom dini vujudga kelgan arab davlatlari hududlarida amalga oshmadi? Albatta islom dini kirib kelgunga qadar ham ilm-fan o'rganilgan, din kirib kelgach u tizimlashtirilgan desak mubolag'a bo'lmydi. Qo'llanma o'laroq Qur'oni karimni ongli ravishda aql bilan o'rgana boshladilar. Qo'shimcha ravishda "Bayt ul-hikma"ga asos solib, u yerda dunyoning har bir burchagidagi turli tillardagi kitoblar (antik davr faylasuflari asarlarini ham)ni yeg'ib, barchasini arab tiliga tarjima qilishdi. So'ngra "Ma'mun akademiyasi" tashkil qilindi, u yerda endi ilmni chuqurroq o'rganib, tahlil qilish boshlandi. Aynan mana shu davrda Imom Buxoriy (muhaddis), Ibn Sino (faylasuf, tabib), Beruniy (dinshunos), Farobiy (sotsiolog), Zamaxshariy (arab tili gramatikasi), Xorazmiy (algoritm asoschisi), Narshaxiy (tarixchi), Firdavsiy (ridaktika), Marg'inoniy (islom huquqi), Ahmad Yassaviy (tasavvuf) kabi bugungi kundagi sivilizatsiya tamal toshlarini qo'yib bergan ma'rifatparvar ulamolarimiz dunyo sahnasiga chiqdi.

Qur'oni karimdagi ilmiy mo'jizalar ham musulmonlar, islom diniga qiziquvchilar sonining ortishiga sababchi bo'lmoqda. Mashhur fizik, kimyogar, astronom va boshqa turli sohalardagi olimlar o'z izlanishlari natijasida kashf qildim, deb aytayotgan kashfiyotlari aslida bundan 14 asr avval nozil qilingan Qur'on karimda keltirilganligi ularni hayratga solmoqda. Alloh taolo yaratgan narsalar ustida aql yuritib ko'plab mo'jizalarga guvoh bo'lishmoqda. Buning o'zi ham islom dinida dunyoviy deb atalayotgan ilmlarga javob borligiga dalildir.

Qur'oni karimning "Qasos" surasida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: "**Alloh senga ato etgan narsa bilan oxiratni istagin va dunyodan bo'lgan nasibangni ham unutmagin.** (77-oyat)

Inson dunyoga qanday munosabatda bo'lish kerakligi ushbu oyati karimada o'z aksini topgan. Musulmon banda qo'liga molu dunyo tushganda o'zini xuddi shu oyatga mos tutmog'i lozim.

"...bu dunyodagi nasibangni ham unutm" - bu dunyoda ham yaxshi yashab, Alloh bergan molu dunyodan halol yo'l bilan, takabburlik qilmay foydalanadi. Chunki, Alloh taolo halol - pok rizqlarni bandalar foyda, xuzur va lazzat olishlari, so'ngra ularni bergan Zotga shukr qilishlari uchun yaratgan. Ana shunda tavozuli, shirin va baxtli-saodatli holga erishiladi.

Buning amaldagi natijasi o'laroq bugungi jadal ravishda rivojlanayotgan davrda yoshlarning turli sohalarda erishayotgan yutuqlarini keltirish mumkin. Kuni kecha Qozon shahrida islom ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Islom huquqi (Hanafiy fiqhi)", "Islom huquqi (Shofi'iy mazhabi)", "Islom asoslari (Qur'onshunoslik, hadisshunoslik, siyrat)", "Arab tili" yo'nalishlarida XVI – Butun Rossiya xalqaro olimpiadasi o'tkazildi. Ushbu musobaqada O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Bugun ommaviy axborot vositalarida "Tata Steel Chess-2024 turnirida o'zbekcha final!!!" nomi ostida xabarlar tarqaldi. Niderlandiyaning Veyk-an-Zeye shahrida o'tayotgan nufuzli Tata Steel Chess-2024 turnirida 10-tur o'yinlari bo'lib o'tdi. Turnir yakunida Maks Varmerdam ustidan g'alaba qozondi. Shunday qilib, hamyurtimiz turnirda qatnashayotgan uchala mezbon grossmeysterni ham mag'lub etdi, bular: Anish Giri, Yorden Van Forest, Maks Varmerdam. hisobida mag'lub etdi. Sharhlovchilar aytganidek, bu haqiqiy sensatsiya bo'ldi. Turnirning 11-turida ayollar o'rtasida jahon chempioni Ju Venjun ustidan g'alaba qozondi. U klassik shaxmatda o'z hisobiga 17,3 reyting ochkosi qo'shdi va dunyoning TOP-15 ta kuchli shaxmatchilari tarkibiga qo'shildi.

Tokioda bo'lib o'tgan 53-Xalqaro fizika olimpiadasida (IPhO) Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 11-sinf o'quvchisi Javohir Sultonov bronza medalini qo'lga kiritdi.

Shveytsariyada bo'lib o'tgan Xalqaro kimyo olimpiadasida (IChO) O'zbekistonlik o'quvchilar 2 ta oltin, 1 ta kumush va 1 ta bronza medalini qo'lga kiritishdi.

Joriy yil Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi 11-sinf o'quvchisi Jasmina Husenova bir vaqtning o'zida ikki eng nufuzli universitet: Xarvard va Kembrij universitetlariga 100 foizlik grand asosida o'qishga qabul qilindi.

Bularni istalgancha davom ettirsa bo'ladi. Bu ilm talabi yo'lidagi yoshlardan qanday qilib buzg'unchilik kutish mumkin?! Maqsad Alloh taolo bergan vaqt, aql, ilm, imkoniyat, sharoitlardan shukronalik ruhida unumli foydalanib, vasatiya- o'rta, mo'tadil, to'g'ri yo'lni tanlab, millatga foyda keltirib, Allohning roziligiga erishayotgan saodatli yosh avlod haqida eslab o'tish edi. Bu dunyodagi nasibasini unutib, johillik, takabburlik qilib diniy mutaassiblik, radikalizm domiga ilingan yoshlarga namuna bo'lishi uchun edi.

Shu o'rinda Liviyalik olim doktor Aliy Sallobiyning haqiqiy musulmon bilan radikal musulmonning farqini ajoyib tarzda tushuntirib bergan qarashlarini keltirib o'tishni lozim, deb topdik:

1. Haqiqiy musulmon o'z iymoni bilan mashg'ul bo'ladi.

Radikal musulmon birovlarining iymoni bilan mashg'ul bo'ladi.

2. Haqiqiy musulmon o'zini va boshqalarni jannatga kirishi uchun harakat qiladi.

Radikal musulmon boshqalarni do'zaxiy ekanini isbotlashga harakat qiladi.

3. Haqiqiy musulmon kishilarning xato va toyilishlarini kechirish uchun uzr qidiradi.

Radikal musulmon esa insonlarni jazolash va ularni gapirib yurish uchun ularning xatolari, ayblari va toyilishlarini qidirib yuradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev parlamentga yo'llagan murojaatnomada radikalizm va ekstremizm mavzusiga to'xtaldi. «Butun dunyoda kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik kabi xatarlar, afsuski, bizni ham chetlab o'tmayapti. Lekin, takror aytaman, musulmon ummatiga saboq bergan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi buyuk ulamolar yetishib chiqqan bizning diyorimizda bu borada adashganlar, radikalizm va ekstremizm

g'oyalari berilgan bo'lishi mumkinmi. Biz jamiyatimizda har qanday radikallashtirishga, yoshlarimiz ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga, **dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma'rifat o'rnini radikallashtirish va jaholat egallashiga yo'l qo'ymaymiz**», — dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.[3]

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda butun dunyo uchun xatarga aylanib ulgurgan diniy ekstremizm va terrorizm muammosiga qarshi kurashishda ekstremizm va terrorizmning oldini olish bo'yicha amalga oshiriladigan turli chora-tadbirlarning barchasi tizimli bo'lishi kerak.

O'zbekistondagi ekstremizm va radikalizm g'oyalari oldini olish bo'yicha amaliyot va chora-tadbirlar zahirida yurt-tinchligini asrash, yoshlarni buzg'unchi qarashlardan saqlash, diniy qadriyatlarini himoya qilish singari maqsadlar yotadi. Bunday harakatlar esa diniy-ma'rifiy targ'ibotlar va huquqiy bazani mustahkamlash ishlarini tashkil qilish yo'li bilan amalga oshirilishi samaradorlikni yanada oshirmoqda. Mazkur jarayonlar O'zbekistonda radikalizm va ekstremizmni oldini olishda o'ziga xos tajriba shakllanishiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Radikalizm – o'zi ham katta fojialarga yetaklovchi illat" Shokir Sharipov
<https://kun.uz/uz/news/2023/04/10/radikalizm-oz-i-ham-katta-fojialarga-yetaklovchi-illat>
2. "Radikalizm xatari va uni bartaraf etishga qaratilgan usullari"
<https://moturidiy.uz/oz/news/2120>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/20/extremism/>